Sulton Sayidxon ibn Mallaxon



Sulton Sayidxon ibn Mallaxon

(?-1868)

(1863-1865)

Qo‘qon xonligida Sulton Sayidxon 1863 yil iyulda qirg‘izlar va qipchoqlar amiri lashkar ***Alimqul*** boshchiligida hokimyatni egallagan. Sulton Sayidxon nomigagina xon qilib ko‘tarilgan, amalda davlat ishlari Alimqul qo‘lida bo‘lgan. Rus qo‘shinlari bu paytda Yangiqo‘rg‘on, Pishpak, Marki, Avliyoota, Turkiston, Chimkentni bosib olishgan. 1865 yil bahorida M.G. Chernyayev boshchiligidagi qo‘shin Toshkentni qamal qilgan. Sulton Sayidxon Alimqul bilan birga Toshkent mudofaasiga rahbarlikni o‘z qo‘liga olgan. Alimqul jangda o‘ldirilgach, qirg‘iz va qipchoqlar qo‘shini Qo‘qonga qaytib kelib, taxtga boshqa xonni o‘tqazish payiga tushgan. Tarixchi Muhammad Solihning yozishicha, Toshkent xalqi Sulton Sayidxonga sodiq qolib, uni qayta xonlik taxtiga o‘tqazishadi. Shu ravishda Toshkent o‘z xoniga ega bo‘lib, Qo‘qondan mustaqilligini namoyish etadi. Sulton Sayidxon Rossiya tajovuziga qarshi yordam so‘rab Turkiya sultoniga, Buxoro amiriga va Qo‘qonga elchilar jo‘natgan. Buxoroga sebzorlik eshon *Hakimxo‘ja qozikalon* boshchiligida har dahadan to‘rt oqsoqol yuboriladi. Buxoro amiri o‘z maktubida Sulton Sayidxon uning huzuriga kelib bo‘ysunishi va shundan keyingina Toshkentga yordam berishi mumkinligini yozgan. Amirning bu talabi qoldirilgan.

2023-11-24 10:58:26